

**2026 yil I-yarim yilligida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni
qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida
MA'LUMOT**

**ИНФОРМАЦИЯ
об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта
за I полугодие 2026 года**

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **20,1** mln. dollarni tashkil etdi.

“NKMK” AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – **15,0** mln. dollar (75,0%),
shu jumladan:
 - magistral yuk teplovozi (13,0 mln. dollar),
 - maxsus transport va boshqa (2,0 mln. dollar).
2. Butlovchilar va ehtiyot qismlar – **2,6** mln. dollar (13,0%),
shu jumladan:
 - ichki yonuv dvigatellari (1,8 mln. dollar),
 - kon texnikasiga ehtiyot qismlar (0,8 mln. dollar).
2. Hom-ashyo va materiallar – **0,06** mln. dollar (0,3 %);
3. Xizmatlar – **2,3** mln. dollar (11,7%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'quvvatlarida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2026-yil yanvar-iyun oylarida mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yil mobaynida 88 ta (grafik bo'yicha 88 ta) loyiha bo'yicha **808,6** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 100,5 % ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2025 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ni tashkil etdi.

Xususan, dastur doirasida yangi turdagi yirik maydalash tegirmoni, yangi turdagi burg'ilash uskunasi va ekskavatorlar uchun yirik bo'g'inlari hamda butlovchi va ehtiyot qismlari kabi yangi turdagi importga o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **4 179,9** mlrd. soʻmni va 2025 yilning mos davriga nisbatan 115,1 % ni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi koʻzda tutilgan, kelib chiqishi import boʻlgan tovarlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni elektron kooperasiya portalida toʻliq oʻrganish orqali maʼlumotnoma shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

“NKMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish boʻyicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish boʻyicha doimiy choralar koʻrilmoqda.